


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 1 **2026**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 1 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 1

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 1



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-1>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun
Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

TARIX

1. Toshpolatov Bekzod Shuxratovich, Ganiyeva Nafisa Rustamkulovna ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА АЁЛЛАРНИНГ ЎРНИ ВА ГЕНДЕР ТЕНГЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ: ХАЛҚАРО ЁНДАШУВЛАР ВА ЎЗБЕКИСТОН ТАЖРИБАСИ ТАҲЛИЛИ.....	7
2. Bekzod Toshpolatov, Nafisa Ganiyeva ENSURING GENDER BALANCE IN THE EDUCATION AND SCIENCE SYSTEM: THE STRATEGIC ROLE OF WOMEN'S PARTICIPATION AND THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN.....	11
3. Sharopova Nigora Akbarovna UMUMTA'LIM MAKTABLARI TIZIMIDA IXTISOSLASHGAN MAKTAB-INTERNATLARI FAOLIYATI (O'ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARI MISOLIDA).....	15
4. Boboqulov Lochinbek Zikir o'g'li ANTI-K VA ILK O'RTA ASRLARDA SO'G'D VA XITOIY MADANIY ALOQALARI.....	19
5. Bekimbetov Bahodir Mirzabaevich XX ASRNING IKKINCHI YARMIDAGI ILMIIY MUHOZARALARDA OROL DENGIZI MUAMMOSI: INKIROZ, OGOHLANTIIRISHLAR VA HAL QILISH YO'LLARI.....	23
6. Abdullayev Timur Pulatovich, Sapayeva Sadoqat Odilbekovna MEHNAT MIGRATSIYASI: NAZARIY YONDASHUVLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	28
7. Abdullayev Timur Pulatovich., Jabbarov Avazbek Adxambek o'g'li. MEHNAT MIGRATSIYASI VA MILLIY IDENTITET.....	34
8. Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li. QADIMGI XORAZMDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINING RIVOJIDA SAVDO YO'LLARINING O'RNI.....	40
9. Tadjiyeva Nargiza Djumabayevna. XORAZM VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTIDA TATAR DIASPORASINING TUTGAN O'RNI.....	44

FILOLOGIYA

1. Sultanova Fazilat, Ro'ziyeva Muhayyo Erkinovna MODERN PEDAGOGICAL APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES (ENGLISH LANGUAGE): A COMPETENCY-BASED PERSPECTIVE.....	48
2. Qo'shnazarova Mehribon Qo'zibayevna XORAZM TARIXNAVISLIK MAKTABI ASARLARIDA KASB-HUNAR LEKSIKASINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	52
3. Ro'zimova Dildora Khujaakhmedovna THE THEORY OF PROJECT BASED LEARNING IN TESOL.....	57

IQTISOD

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna YASHIRIN IQTISODIIYOTNING MINTAQA IQTISODIIY O'SISHIGA SALBIY TA'SIRLARINI BARTARAF QILISH.....	61
---	----

2. Egamberdiev Egamberdi

THE ROLE OF INTEGRATED DIGITAL MARKETING STRATEGIES IN ENHANCING SME COMPETITIVENESS IN UZBEKISTAN.....65

3. Matkarimov Mansur Maksudovich

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHNING IQTISODIY-SIYOSIY TAHLILI....69

PEDAGOGIKA VA ANIQ FANLAR

1. Yuldosheva Sabohat Norimon qizi

GEOMETRIK ISBOTLASHDA DEDUKTIV–INDUKTIV YONDASHUVLARNING UYG‘UNLASHUVI.....75

FALSAFA

1. Майлиев Азамат Фарходович

ЁШЛАР ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ВА НАНОТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ.....78

Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'liMa'mun universiteti "Tarix" kafedrasida dotsenti v.b.,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
email: baxtiyarov_sirojbek@mamunedu.uz**QADIMGI XORAZMDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINING RIVOJIDA SAVDO
YO'LLARINING O'RNI**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18519538>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada qadimgi Xorazm hududida urbanizatsiya jarayonlarining shakllanishi va rivojlanishida savdo yo'llarining tutgan o'rni tarixiy va arxeologik manbalar asosida tahlil qilinadi. Maqolada savdo yo'llari va urbanizatsiya jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Qal'aliqir 2, Kelif, Kerki, Amul, Darg'onota, Kaparas, Elxaros, Sadvar, Gerriget, Nurum hunarmandchilik markazi.

Бахтияров Сирожбек Илхомбек угли

и.о. доцента кафедры "История"

Университета Маъмуна,

доктор философии (PhD)

по историческим наукам

email: baxtiyarov_sirojbek@mamunedu.uz

**РОЛЬ ТОРГОВЫХ ПУТЕЙ В РАЗВИТИИ ПРОЦЕССОВ УРБАНИЗАЦИИ В
ДРЕВНЕМ ХОРЕЗМЕ****АННОТАЦИЯ**

В данной статье на основе исторических и археологических источников анализируется роль торговых путей в формировании и развитии процессов урбанизации на территории древнего Хорезма. В статье научно обоснована взаимосвязь между торговыми путями и процессами урбанизации.

Ключевые слова: Кальаликир 2, Келиф, Керки, Амуй, Даргонота, Капарас, Эльхарос, Садвар, Герригет, Нурум центр ремесел.

Bakhtiyarov Sirojbek Ilkhombek ugli

Acting Associate Professor of the

Department of "History" of Mamun University,

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences

email: baxtiyarov_sirojbek@mamunedu.uz

**THE ROLE OF TRADE ROUTES IN THE DEVELOPMENT OF URBANIZATION
PROCESSES IN ANCIENT KHOREZM**

ABSTRACT

In this article, based on historical and archaeological sources, the role of trade routes in the formation and development of urbanization processes in the territory of ancient Khorezm is analyzed. The article scientifically substantiates the relationship between trade routes and urbanization processes.

Keywords: Qalaliqir 2, Kelif, Kerki, Amul, Dargonota, Kaparas, Elxaros, Sadvar, Gerriget, Nurum crafts center.

KIRISH. Savdo joylari va karvon yo'llarining mavjudligi hududning urbanizatsion rivojlanishiga muhim omil hisoblanadi. Xorazm vohasining g'arb va sharqda joylashgan davlatlarning o'rtasida joylashganligi va cho'l zonasining hududini Amudaryoning quyi oqimi yorib o'tganligi qadimgi davrda xalqaro savdo uchun qulay sharoitni shakllantirgan. Xorazm vohasi atrofi cho'lliklar bilan o'ralganligi sababli bu voha qadimiy savdo yo'llari chorrahasiga aylangan. Bu yerda yirik savdo markazlari – shaharlarning shakllanishiga zamin yaratgan.

TADQIQOT METODLARI. Mazkur tadqiqotda tarixiy-tahliliy, solishtirma va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Qadimgi Xorazm hududida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijalari, yozma manbalar hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Shuningdek, shaharlarning joylashuvi va savdo yo'llari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda kartografik materiallardan foydalanildi.

Urbanizatsiya jarayonlari savdo munosabatlari, hunarmandchilik markazlari va bozorlarga oid arxeologik topilmalar asosida o'rganildi. Olingan ma'lumotlar mintaqaviy va xronologik jihatdan solishtirilib, umumlashtirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Xorazm vohasidagi qadimiy savdo yo'llari eng qadimgi davrdan shakllangan va hududda aholi soni ortishi bilan takomillashib, tarmoqlanib borgan. Bunda asosan, suv yo'llari va uning bo'yida bunyod etilgan shaharlar muhim ahamiyat kasb etgan. Xorazm vohasi orqali Xitoy, Hindiston, quyi Volgabo'yi, Uralbo'yi, Kavkazorti, Eron va boshqa mamlakatlar bilan aloqalarni o'rnatishda savdo yo'llarini bog'lovchi markaziy hudud vazifasini bajargan. Bu Xorazm vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqot natijalari asosida o'z isbotini topgan. B.I.Vaynberg qadimgi Xorazmning Kavkazorti davlatlari va Mesopotomiya bilan bo'lgan aloqalarini Qal'aliqir 2 yodgorligidan topilgan moddiy buyumlar asosida asoslagan [1, C.26.]. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari bo'yicha shug'ullangan olim O.M.Mavlonov Uzboy oqimi Amudaryoning yuqori oqimi bilan Kaspiy dengizigacha bo'lgan hududni suv yo'li orqali bog'lagan va bu yo'l xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan deb ko'rsatadi [2, B.95.].

Xorazm vohasi shimol, shimoli-g'arb va shimoli-sharq tomondan ko'chmanchi chorvadorlar yashaydigan hudud bilan chegaradosh bo'lgan. Qadimgi Xorazm davlati ko'chmanchi chorvadorlar bilan ham savdo-iqtisodiy aloqalarini olib borish bilan birga ularning hududlaridan o'tgan yo'llar orqali Volgabo'yi hududlariga chiqqan. Bu hududlarda chegara shaharlarni bunyod qilgan. Chegara shaharlar bir tomondan harbiy vazifani bajargan ikkinchi tomondan savdo aloqalarini ham olib borgan. Ustyurt orqali Kaspiy dengizi bo'yiga chiqilgan. Bu ma'lumot yunon yozma manbalarida saqlanib qolgan. Bu yerda Devkeskan qal'asi va Devkeskan g'ovi bunyod etilgan. G'arbiy chegaralar bo'ylab Oqchagelin, Govurqal'a, Kangaqirqal'a va boshqa qal'alar bunyod qilingan.

Qadimgi Xorazm davlati Amudaryo orqali qadimgi Baqtriya, Marg'iyona davlatlari bilan savdo aloqalarini o'rnatgan va o'z navbatida bu davlatlar Xorazm vohasi orqali shimolda va g'arbda joylashgan boshqa davlatlarga chiqishgan. Amudaryoning o'rta oqimidagi yo'llar Kelifdan Darg'onotagacha bo'lgan hududda joylashgan. Amudaryoning o'rta oqimi Tuyamo'yin hududlarigacha davom etgan. Bu joy qadimgi davlatlar – Xorazm, Marg'iyona, Baqtriya va Sug'dning chegara hududlari o'tgan joy bo'lib, bu hududda kechuv yo'li o'tgan va bu yerda hech bir davlat o'z hukmronligini o'rnatmagan. Tadqiqotchilar bu hududda Kelif, Kerki, Amul, Darg'on ota va boshqa kechuvda xizmat qiluvchi qal'alarni aniqlashgan [3, B.19.]. Amudaryoning o'rta oqimida Odoytepa, Qo'shqal'a, Darg'on, Jigarband qal'asi [4], Tuyamo'yin suv ombori hududlarida Kaparas, Elxaros, Sadvar [5] yodgorliklar bunyod etilgan. Hozirgi Xorazm hududida Qalajiq (Dovudqal'a), Sandiqli, Qoratosh, Yakkachiqli, Qirqqiz, Yangiariq Tuproqqal'asi, Xiva

Tuproqqal'asi, Shovot Tuproqqal'asi, Olmaotishkan 1, Katta Simota, Qorako'lqal'a, Katqal'a, Pilqal'a, Voyangan (Rait), Oltinko'l, Ko'narliqal'a, Zamaxshar va boshqa qal'alar bunyod etilgan.

Mil.avv. VIII – milodiy II asrlar davrida Amudaryoning Uzboy o'zanining faoliyati jarayonida qadimgi Xorazm davlati Kaspiy dengizga suv orqali aloqalarni o'rnatgan. Uzboy o'zani orqali Kaspiy dengiziga undan Kavkazorti va Qora dengizga chiqishgan [2, B.95.]. Bu yo'l faoliyati davrida baqtriyaliklar va hindlar ham Kavkazorti va Volabo'yi hududlari bilan aloqalarini o'rnatgan. Uzboy bo'ylab kemalar qatnagan. Bu yerdagi Cholingir qirida Durdul qal'asi qurilgan. U Qizil Arvatdan 15 km shimolda joylashgan. Uning yaqinida Gerriget (Eski kechuv) deb nomlangan ko'chmanchilarning qishlov joyi bo'lgan. Ularning yaqinida diniy ibodat marosimlari o'tkaziladigan Ichonlitepa qal'asi qurilgan. Bu yerdan mil.avv. V – II asrlarga oid sopol idishlar, o'q uchlari va boshqa moddiy buyumlar topilgan [7, C.35-36].

Mil.avv. IV – II asrlarda Sariqamish deltasida suvning ko'payishi va doimiy bo'lishi hududning g'arbiy xorijiy mamlakatlar bilan suv orqali o'zaro munosabatlarini yanada jonlantirgan.

Sariqamish o'zanining g'arbiy chegarasida O'rta Davdaka oqimi kengliklarida mil.avv. II – I va mil. II – III asrlarga oid Nurum hunarmandchilik markazi tashkil qilingan. U 500 gektardan iborat bo'lib, 20 ta qishlog'i bo'lgan. Bu qishloq ko'chmanchi chorvadorlar va Xorazm davlati bilan tovar ayirboshlash markazi bo'lgan. Hunarmandchilik mahsulotlari shu yerning o'zida tayyorlangan, asosan sopol idishlar ko'chmanchi chorvadorlar bilan ayirboshlangan. Xorazm davlati antik davrda ham ko'chmanchi chorvadorlar bilan iqtisodiy xo'jalik aloqalari olib borilgan.

Xorazm davlati vohaning sharq tomonida joylashgan davlatlar bilan aloqalar o'rnatgan. O'z navbatida bu davlatlar Xorazm vohasi orqali g'arbiy o'lkalarga o'z savdo karvonlarini o'tkazishgan. Bularga misol qilib Sug'd, Toshkent, Farg'ona, Xitoy davlatlarini ko'rsatishimiz mumkin.

Sug'd davlati bilan bir necha yo'nalishlarda aloqa yo'llari mavjud bo'lgan. Sug'ddan Zarafshon daryosi oqimi bo'ylab joylashgan qal'alar orqali Amudaryoga chiqqan va Amudaryoning o'ng qirg'og'i bo'ylab qadimgi Xorazmga chiqilgan. Xorazm vohasiga Odoytepa yaqinidagi kechuv orqali Amudaryoning chap qirg'og'iga o'tib, Marg'iyonaga o'tilgan. Arxaik davrda Sug'd davlati bilan aloqa yo'llari antik davrda ham davom etgan. Bu yo'l Maroqand – Buxoro Zarafshonning quyi oqimidagi Poykent orqali Farobga va Amudaryoning o'ng oqimi bo'ylab, Tuproqqal'aga va Xorazmning boshqa yirik shaharlariga borgan. Amul kechuvidan o'tib, Amudaryoning chap qirg'og'i bo'ylab, Xazoraspga va undan boshqa shaharlariga borgan. Ikkinchi yo'l Buxorodan Qizilqumning g'arbiy tomonidagi manzilgohlar va quduqlar orqali o'tgan. Bu yo'l orqali quruqlikdan borilgan.

Xorazm vohasida antik davr aloqa yo'llari tizimi ham keng tarmoqli bo'lgan. Ular Amudaryo va undan chiqarilgan kanallar bo'ylab joylashgan yirik va o'rta hajmdagi qal'alarni o'zaro bog'lagan. Bu yo'llar dehqonchilik vohalarini qo'shni mamlakat va ko'chmanchi chorvadorlar egallangan hududlar bilan bog'lagan. Vohadagi har bir magistral kanal va u bo'ylab joylashgan shaharlar ichki savdo yo'llarining asosiy bo'g'ini ham sanalgan [8, C.319.]. Vohadagi ichki yo'llar tizimi qal'alarning joylashishiga mos holda shakllangan. Markaziy shaharni boshqa shaharlar bilan bog'lovchi yo'llar uning asosiy tarmog'ini tashkil qilgan. Savdo yo'llarida yaxshi istehkomli shaharlar bunyod etilgan. Kaparas, Xazorasp, Qal'ajiq, Ko'hna Uaz, Gurganj, Oqchagelin, Qanhxaqal'a, Qo'shqal'a, Tuproqqal'a, Jigarband, Sho'raxon, Govurqal'a, Xo'jayli kabi yirik shaharlar bunyod etilgan.

Xorazmning shimoli-g'arbiy chekkasida joylashgan arxeologik yodgorliklar – Katta Aybuyirqal'a va Devkesganqal'alar faqat istehkom bo'lmay, balki hunarmandchilik va savdo punktlari ham bo'lgan. Antik davrga oid Oqchungul va Ketmonchi bobo qal'alari uchta xalqaro savdo yo'lidan birida to'xtab o'tadigan joy bo'lgan [9, B.75.]. Har bir bunday qal'alar atrofida qishloqlar topilgan. Qishloqlarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishlari bilan birga, ko'plab miqdorda savdo uchun sopol buyumlar, turli hunarmandchilik buyumlarini va uzumdan musallas tayyorlaganlar. Bunday ishlab chiqarish markazlari chegara hududlarda joylashgan [10, C.70].

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, qadimgi Xorazmda urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishida savdo yo'llari muhim strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan. Savdo aloqalarning rivojlanishi davlatda hunarmandchilik, madaniyat, san'at va iqtisodiyotning

taraqqiyotiga sabab bo'lgan. Xorazm vohasi savdo va madaniy almashinuv markazi sifatida strategik ahamiyatga ega bo'lgan. Xitoyni G'arb bilan bog'lagan Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'i shu hududdan o'tgan. Qadimiy savdo karvon yo'llari va turli yo'nalishlarga boradigan boshqa savdo yo'llari chorrahasida joylashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Вайнберг Б.И. Этнография Турана в древности. VII век до н.э. – VIII век н.э. – Москва: Восточная литература, 1999. – 360 с.
2. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Akademiya, 2008.
3. Каримов Я.А. Марказий Осиё коммуникация тизимида сув йўлларининг тутган ўрни (қадимги давр ва ўрта асрлардан Амударё ва Сирдарё мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс.автореф. –Нукус, 2020.
4. Вишневская О.А. Раскопки городища Джигербент. // АО. 1974 г. – Москва, 1975.
5. Вактурская Н.Н. Раскопки средневекового города Садвар. // АО. 1973 г. – Москва. 1974.
6. Вактурская Н.Н. Раскопки на городище Садвар. // АО. 1974 г. – Москва. 1975. – С. 542; Древности Южного Хорезма. – С. 19.
7. Вайнберг Б.И., Юсупов Х. Культовый комплекс древних скотоводов на Узбое. // Культурные связи народов Средней Азии и Кавказа в древности и средневековье. -М.: 1990.
8. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. – Москва: Наука, 1985. – С.493.
9. Ходжаниязов Ф. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. – Тошкент: O'zbekiston, 2007. – 216 б.
10. Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2013. – 336 с.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].